

BOBURIYLAR IMPERIYASIDA SHOX JAHONNING TUTGAN O'RNI

F.B.Hayitova

TDPU dotsent v.b.

N. Eshpo'latova

TDPU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boburiylar imperiyasida Shox Jahonning tutga o'rni hamda uning qilgan ishlari haqida so'z boradi. Eng avvalo Shoh jahonning diniy va dunyoviy jihatdan davlarni idora qilganini tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlari: Xurram, Buyuk mug'ullar, Shohjahon, Akbarshoh, Nurjahon begim, Arjumand, Kashmir, Agra, Lohur.

Boburiylar — Hindistonda (1526—1858) hukmronlik qilgan sulola. Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan. Chet ellarda, mamlakatimizda, hatto Hindistonda ham Boburni va uning avlodlarini “buyuk mo'g'ullar” deb atash odat bo'lib qolgan. “Buyuk mo'g'ullar” degan ibora Chingizxon va undan keyingi mo'g'ul qoonlari (O'qtoy qoon, Guyuk qoon, Munka qoon)ga taalluqli bo'lib, Boburiylar aslida Amir Temur va Mirzo Bobur avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini “boburiy mirzolar” deb yuritishgan. V. V.Bartol'd dunyoda tarqalgan “buyuk mo'g'ullar” iborasining xato ekanligini ko'rsatib, “yevropaliklar Temurni va uning o'g'illari hamda nabiralarini mo'g'ullardan tarqalgan deb hisoblab, (Bobur) saltanati uchun «buyuk mo'g'ullar» degan nom to'qidilar”, deb yozadi. Bu ibora esa Yevropadan Hindistonga ko'chib kelib, hindlar orasiga inglizcha kitoblar vositasi b-n tarqalgandir. So'nggi yillarda “buyuk mo'g'ullar” degan xato ibora o'rniga “boburiylar” iborasi qo'llanila boshladiki, bu ibora tarixiy haqiqatni to'g'ri aks ettiradi. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qildilar.

Tug'ilganda Xurram ismi berilgan Shoh Jahon 1592-yilning 5-yanvarida Lahorda dunyoga kelgan. Otasi Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiy shahzodalardan uchinchisi - Jahongirshoh (Salim, 1569—1627), onasi rajputlar sulolasi vakili malika Manmati edi.

Shahzoda Xurram yoshligida qaddi-qomati juda kelishgan, aqlu odobda boshqalarga namuna bo'ladigan, shu bilan birga shon-shuhratga intiluvchan serg'ayrat yigit bo'lganidan, bobosi Akbarshohning suyukli nabirasi hisoblanardi. Shu o'rinda, muxtasar tarzda Akbarshoh haqida gapirsak. Qaysi dinda bo'lishlaridan qat'i nazar hindistonliklarning aksari Akbar Shohning buyuk hukmdor bo'lganini ta'kidlashadi. Bobur va Akbarshohning Hindiston tarixidagi o'rni haqida Javoharlal Neruning etiborli fikri mavjud.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yosh shahzoda Xurramning shijoati, aql zakovatini ko'rgan-bilganlar o'sha paytdayoq uning taxt vorisi bo'lishiga komil ishonch bilan qarar edilar. Yosh shahzoda bobosidan keyin taxtga chiqqan otasi Jahongirshohning ham e'tiborini qozonishga erishadi. Uning jasurligi va mas'uliyatni his eta bilish tuyg'usini yaxshi qadrlagan Jahongirshoh shahzoda Xurramni o'spirinligidayoq ko'pgina harbiy yurishlarga

sardor etib tayinlar edi. U 15 yoshga to'lganida 8 ming piyoda askar va 5 ming suvoriydan iborat qo'shinga qo'mondonlik qilish huquqini beruvchi harbiy mansabga munosib ko'rilgan bo'lsa, 1611-yilda 19 yoshga to'lgach, u 10 ming piyoda askar va 5 ming otliq navkarga qo'mondonlik qila boshladi .

Umrining so'nggi vaqtlarida Jahongirshoh bot-bot kasal bo'lib, davlat ishlariga qaramay qo'yadi. Ana shunday paytlarda uning ikkinchi xotini bo'lmish Nurjahon begim saltanat ishlarini boshqarib turadi. Nurjahon begimning saltanat ishlaridagi faoliyati va uning tutgan mavqei Jahongirshohning o'g'illariga, ayniqsa shahzoda Xurram (Shahobiddin Shoh Jahon)ga yoqmasdi.

Jahongirshoh salomatligi yomonlasha boshlagach, 1616- yilda shahzoda Parvez (Jahongirshohning ikkinchi o'g'li)ni taxtga valiahd etib tayinlaydi. Jahongirshohning to'rtinchi o'g'li shahzoda Shahriyor irodasiz va qatiyatsiz kishi edi. Nurjahon begim qo'g'irchoq sifat shahzoda Shahriyorni taxtga valiahd etish maqsadida o'zining avalgi eri Sherafkandan bo'lgan qizi — Lodila begimni shahzoda Shahriyorga nikohlab beradi. Jahongirshohning uchinchi o'g'li shahzoda Xurram (Shoh Jahon) 1612-yilda 21-yoshida Nurjahon begimning akasi Osafxonning 19 yoshli qizi Arjumand bonuga uylangan edi. Binobarin, Osafxonning maqsadi, o'z kuyovini shahzoda Hurrarni valiahdlikka tayinlatish edi .

Shahzoda Xurram o'z otasi Jahongirshohdan ham, valiahd akasi shahzoda Parvezdan ham, ukasi shahzoda Shahriyor va uning homiysi malika Nurjahon begimdan ham xafa edi. Otasidan so'ng taxtga o'tirishga harakat qilarkan, bu yo'lda asosiy g'ov deb Nurjahon begimni bilardi. 1622-yilda Nurjahon begimning otasi vazir E'timod-ud Davlat vafot etgach, Nurjahon begim bilan shahzoda Xurram orasida ayovsiz ziddiyat kuchaydi. Bu davrda kasalmand Jahongirshoh saltanat ishlariga qaramay qo'ygan, binobarin, davlatni boshqarish asosan Nurjahon begim qo'lida qolgan edi.

Shahzoda Xurram o'z kelajagi haqida taraddudlanib, 1622-yilda otasi Jahongirshoh tomonidan o'z qaramog'iga topshirilgan nogiron (ko'r qilingan) akasi - shahzoda Xusravni pinhona bo'g'ib o'ldirtiradi, otasi Jahongirshohga esa «sanchiq azobidan vafot etdi», deb xabar yuboradi. Shu zaylda saroy ichida guruhbozlik avj olib, kundan-kun saltanatdan putur keta boshlaydi. Ana shunday qulay vaziyatni ko'pdan beri kutib turgan Eron hukmdori Shoh Abbas to'satdan Qandahorni qamal qiladi va qirq kunlik qamaldan so'ng shaharni qo'lga kiritadi. Jahongirshoh shaharni qaytarib olish maqsadida shahzoda Xurram boshchiligida katta qo'shin to'plab, Qandahorga yubormoqchi bo'ladi. Lekin shahzoda Xurram saroydagi notinch vaziyatda taxtdan uzoqlashishii istamay, Qandahorga borishdan voz kechadi va tez kunda otasi Jahongirshohga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olon bostiriladi. Ammo saroydagi guruhbozlik, maxfiy fitnalar mamlakatning ichki va tashqi mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Saltanatni vaqtincha Nurjahon begim boshqarardi. U o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida Jahongirshohga sodiq lashkarboshi Mahobatxonni saroydan chetlatib, Bengaliyaga jo'natadi va mol-mulkini ro'yxatga oldiradi. Bundan norozi bo'lgan

Mahobatxon saltanatga qarshi bosh ko'taradi. Shu voqeadan sal vaqt o'tgach, Jahongirshoh Nurjahon begim bilan birga poytaxtdan Qobulga qarab safarga chiqadi. Mahobatxov rajputli qo'shini bilan yo'lga chiqib, Shoh qofilasini (karvon) o'rab oladi. Mahobatxonning barcha shartlari Jahongirshoh tarafidan nochor qabul qilinadi. Nurjahon begim Mahobatxonga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ladi, lekin kuchlar teng emasligiga ko'zi yetgach, makr-hiyla yo'lini qidiradi. Shoh karvoni Mahobatxon nazorati ostida Qobulga qarab yo'l oladi. Qobulga kirilgach, Nurjahon begim Jahongirshohni Mahobatxon soqchilari qo'lidan qutqarib oladi va Kobul qo'shinini Mahobatxonga qarshi qo'yadi. Endi Mahobatxon uchun kochishdan boshqa chora qolmaydi. U Qobuldan qochib Dekanga boradi va shahzoda Xurramga qo'shiladi.

Ammo bu vaqtda shahzoda Xurramning ahvoli og'irlashib, Eronga qochib o'tish fikrida yurardi. Biroq, 1626-yil oktyabr oyida akasi valiahd shahzoda Parvezning to'satdan vafot etishi uning so'ngan umidlarini yana jonlantirib yuboradi. 1627-yili Jahongirshoh Kashmir bo'ylab sayohatga chiqadi. Sayohatdan qaytayotib, xastalanib yo'lda vafot etadi va Lohurda dafn etiladi. Bu xabarni eshitgan shahzoda Xurram taxtni egallash uchun Dekandan Agraga yo'l oladi.

Shahzoda Xurram Agraga yetib kelgunga qadar uning qaynotasi Osafxon muvaqqat ravishda marhum shahzoda Husravning o'g'li Dovar Baxshni taxtga o'tqazadi. Shahzoda Shahriyorni ushlatib, ko'ziga mil torttirib, ko'r qiladi. Kuyovi shahzoda Xurramning Agraga yaqinlashgani xabarini eshitgan Osafxon taxt sohibi qo'g'irchoq Dovar Baxshni turli-tuman vasvasalar bilan qo'rqitib, taxtdan voz kechishi va o'zini panaga olishini maslahat beradi. Dovar Baxsh taxtni tashlab qochadi va Eron shohi huzuriga panoj istab boradi.

Hind tarixchisi Koshik Royning yozishicha Boburiylarning 1647-yilgi harbiy qudrati 911400otliq va piyodadan tashkil topgan ekan. Lekin, qilishicha butun mamlakatning daromadi 342 696 otliq va 4039 097 piyoda armiya tuzishiga yeta oladigan darajada bo'lgan deya aytadi. Bu narsa aynan Shoh jahonning davriga tug'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda Boburiylar imperiyasining yuksalishi aynan shu davrda desak adashmaymiz. Shohjahon zamonidagi xalq farovonligini shu narsa ham dalil bo'lishi mumkinki, u butun qurulishlarning haqini to'lab bo'lgandan keyin, uning xazinasida 240 million rupiya tilla bo'lgan. Shundan keyin bir fikrga keldim ya'ni qancha sarf xarajat bulsa ham, qancha inshootlar qurilsa ham mamlakat xazinasiga hech qanday zarar yetmagan bu esa soliqlarni oshirishiga sababchi bo'lmagan, baholangki bu narsa davlatda tinchlikni ta'minlab bergan.

Shahzoda Xurram 1628 yil fevral oyida Agraga kirib, aytarlik qarshiliksiz taxtga o'tiradi. U saltanatni o'z tasarrufiga kiritgach, o'zini «Shoh Jahon» nomi bilan atashnn buyuradi. Niyatlariga yeta olmagan malika Nurjahon begim 1645 yilda vafot etadi va qabri Lohurning Shoh Dara qabristoniga qo'yiladi. «Tazkirat ul-havotin»da yozilishicha, Nurjahon begimning qabr toshiga o'zi bitgan quyidagi bayt yozilgan ekan:

Bar mazori mo g'aribon na charogi, na guli,

na par parvona yobi, na sadoyi bulbuli.

Mazmuni: Biz g'ariblarning mozorimizda, na chiroq, na gul,

Na bulbul sadosiyu, na biror parvonani topmaysan.

Shoh Jahonning o'ttiz yil (1628-1658) davom etgan hukmronlik davri Hindiston va Boburiylar saltanati tarixida yorqin iz qoldirdi. Bu davr ichida saltanat hududan unchalik katta hajmda kengaymagan bo'lsa ham, o'sha davr me'yor bilan o'lchanadigan bo'lsa, mamlakat taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan edi. Bu davr fuqaro uchun tinch, osuda hayot va to'kin-sochinlik, mo'l-ko'lchilik davri bo'ldi. Shuning uchun bo'lsa kerak, tarixchilar uning hukmronlik davrini Hindistondagi «boburiy podshohlar hukmronligining oltin davri» deb, Shoh Jahonning o'zini esa «bunyodkor podshoh» deb atashadi. Chunki uning hukmronligi davrida bunyod etilgan inshootlar undan avvalgi ajdodlari davrida qurilgan binolardan me'moriy uslubi jihatidan farq ancha qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nuritdinov. M. Boburiy sulolalar. -Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashiryoti. 1994. -B. 35.
2. Sotimov. F. Boburiyzodalar. – Toshkent. Toshkent "Ma'naviyat" nashiryoti. 2003. - B. 71.
3. Mavlanov. R. I. Boburiylar sulolasining Hindistonda iqtisodiy boshqarish tizimi (Ayrin jihatlari). - Toshkent. 2021. -B.103.
4. Fayziyev. T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari (Boburiylar sulolasining qisqacha shajara tarixi). -Toshkent. 1996. -B.95.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashiryoti. 1960. -B. 503.